

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.D.Dehqonov	
Bolalarni qo'g'irchoq teatri orqali tarbiyalashning o'ziga xos ahamiyati.....	194
X.M.Xoshimxonov	
Xoja Ahmad Yassaviyning irfoniy – falsafiy qarashlari.....	198
M.A.Muxiddinova	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining jamoaviy ijodiy, kasbiy va texnik tayyorgarligining pedagogik xususiyatlari.....	204
Y.A.Saidova	
O'smirlarda ishonch hissi va uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	208
Sh.A.Mamajonov, X.M.Jo'rayev	
Bo'lajak kimyo o'qituvchilarida ekologik kompetentlikni shakllantirish.....	213
M.M.Azizov	
Skandinavcha yurish sport-sog'lomlashtirish dasturlarini optimallashtirishning asosiy vositasi sifatida	218
D.V.Vohidova	
Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni ustoz-shogird sifatleri haqida.....	223
X.X.Raxmatova	
Murosa falsafasiga doir tushunchalarning tasavvufiy mohiyati	227
X.X.Raxmatova	
Ma'rifatli jamiyat qurishda Xoja Ahror Valiy murosaga oid qarashlarining ahamiyati.....	232
O.L.Berdiyev	
Abu Ali Ibn Sino va Nosiruddin Tusiyning falsafiy qarashlari	237
D.D.G'ulomov	
Abdulla Qodiriy ijodida retrospektiv syujet ("Mehrobdan chayon" romani misolida)	243
D.I.Gulamova	
Interpretation of euphemisms used in social life	246
M.K.Juliyev, L.A.Gafurova, M.D.Xolmurodova, B.E.Abdikairov	
O'zbekistonda tuproq eroziyasining sabablari va eroziyaga tasir qiluvchi omillar	250
B.O.Komilova, M.R.Toxirova	
Yuqori sinf o'quvchilarining aqliy faoliyatiga jismoniy mashqlarning ta'siri	254
B.O.Komilova	
Ichak turli bo'limlaridagi fermentlar faolligining ayrim gormonlar ta'sirida o'zgarishi.....	257
Z.M.Otaxonova, J.M.Otajonov	
Talabalarni xalq pedagogikasi asosida milliy ruhda tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari	260
A.I.Mirzoyev, M.A.Mamasoliyeva, J.M.Turdaliyev, B.D.Raxmonov, Sh.Sh.Turg'unboev, I.A.Xudoynazarov	
Navoiy viloyati sho'rlangan tuproq tarkibidagi tuzlarni yuvish uchun kimyoviy melioratsiya usulidan foydalanish istiqbollari.....	263
Sh.K.Abduraxmonov	
Chaqiriqqacha harbiy ta'lim kursantlarida kasbiy madaniyatni rivojlantirish metodikasi va pedagogik shartlari.....	270
U.R.Radjabov, K.B.Xakimdjano	
Maktabgacha ta'lim muassasi tarbiyalanuvchilarini harakatli o'yinlar orqali bolalar psixologiyasini va nutqini rivojlantirish usulublari.....	275
O.Ortiqov	
Mustaqillik davrida ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar tahlili (1990-1994 yillar).....	279
A.R.Jo'rayev	
Minnatdorchilik bildirish nutqiy janrining lingvistik xususiyatlari.....	283
M.C.Курбоналиева	
Муаррифии чанд тазираи умумии шоирони асри xviii	286
X.A.Lutfullayeva	
Problems of developing self-educational skills of students	293
P.Абдуллаев	
Татабуъоти Амир Муиззй ба қасидаҳои Унсурии Балхӣ	298
	XOTIRA
Ustoz Muxammadjon Qoraboyevning yorqin xotirasi	304

XOJA AHMAD YASSAVIYNING IRFONIIY – FALSAFIY QARASHLARI

МИСТИКО-ФИЛОСОФСКИЕ МЫСЛИ ХОДЖИ АХМАДА ЯСАВИ

MYSTICAL - PHILOSOPHICAL VIEWS OF KHOJA AHMAD YASSAVI

Xoshimxonov Xondamir Muminovich¹

¹Sambhram universiteti NTM xodimlar bo'limi boshlig'i, erkin tadqiqotchi

Аннотация

Ushbu maqolada shoir va mutafakkir, so'fiy donishmand Xoja Ahmad Yassaviyning irfoniiy-falsafiy qarashlari falsafa tarixi negizlari nuqtai nazaridan tahlil etilgan.

Аннотация

В данной статье мистико-философские взгляды поэта и мыслителя, суфийского мудреца Ходжи Ахмада Яссави анализируются с позиции истории-философской основы.

Abstract

In this article, the mystical-philosophical views of the poet and thinker, Sufi sage Khoja Ahmed Yassavi are analyzed from the perspective of the foundations of the history of philosophy.

Kalit so'zlar: *mutafakkir, mutasavvif, donishmand, orif, shayx, hadis, ma'rifatparvar, masjid, payg'ambar, Buxoro, Turkiston, Yassi, dehqon, chorvador, kosib, hunarmand, Haq, islom, fano, baqo.*

Ключевые слова: *мыслитель, мистик, мудрец, учёный, шейх, хадис, просветитель, мечеть, пророк, Бухара, Туркестан, Яси, земледелец, пастух, ремесленник, Хак, Ислам, смерть, вечность.*

Key words: *wise man, mystic, sage, scholar, sheikh, hadith, enlightener, mosque, prophet, Bukhara, Turkestan, Yassi, farmer, herdsman, farmer, craftsman, Right, Islam, death, forever.*

KIRISH

Ergash Rustamovning ma'lumotiga ko'ra, Xoja Ahmad Yassaviyning masjidi peshtoqiga o'z davrida payg'ambar alayhissalomning "Talabul ilmi farizatun ala kulli muslimin va muslimatin", ya'ni ilm talab qilish har bir musulmon erkak va ayol uchun farz, degan hadisi bitib qo'yilgan ekan. Bu esa Xoja Ahmad Yassaviy o'z zamonasidagi eng ulkan ma'rifatparvar, mutafakkir va mutasavvif donishmandlardan biri bo'lganligi borasida hech kimda hech qanday shak – shubha qoldirmaydi. Va eng muhimi, bu narsa Xoja Ahmad Yassaviyning shu paytgacha "tarki dunyochi", "ijtimoiy" deb kelingan fikrlarning puch va beasos va g'ayriilmiy ekanligini ham isbotlaydi[1].

O'rta asrlarda Sharq va G'arbda istilochilikka qarshi kurash yoki uning aksi – bosqinchilik siyosatini oqlash, muqaddas dinni himoya qilish bayrog'i ostida olib borilgan. Bu vaqtda G'arbda iqtisodiy va ma'naviy boylikni qo'lga kiritish, uni talon – taroj etish uchun salb yurishlari e'lon qilindi. Yuqoridagi misralarni o'qir ekanmiz, Ahmad Yassaviyni boshqa dindagi xalqlar dushmani deb o'ylash to'g'ri kelmaydi:

Sunnat ermish, kofir bo'lsa, berma ozor,

Ko'ngli qottig' dilozordin Xudo bezor.

U g'ayridinlarga emas, balki g'ayridin niqobidagi istilochilarga qarshidir[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ahmad Yassaviy XII asrda yashagan. u ham Yusuf Hamadoniya o'qigan, lekin o'z maktabini ochgandan keyin, O'rta Osiyoda so'fiylikning o'taketgan mistik oqimini vujudga keltirdi. Ahmad Yassaviy maktabining dunyoqarashi "Hikmat" mashhur asarda she'riy shaklda bayon etilgan. Bu falsafiy asar ravon, kitobxon uchun oson bo'lgan o'zbek tilida yozilgan. "Hikmat" o'zbek adabiyotining qimmatbaho yodgorligidir va uning muallif islom dinini, islom falsafasini, so'fiylikni, dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlarning turmush va hayotini va umuman o'sha davrning ijtimoiy tartiblarini yaxshi bilgan mashhur kishi bo'lganidan guvohlik beradi. Yassaviyning saviyasi keng va chuqur bo'lganligi uchun u o'zbek tilida birinchi marta ana shu yirik haqqoniy asarini yoza oldi[3].

Ahmad Yassaviy Movarounnahrda mistitsizmning ko'zga ko'ringan namoyandasi sifatida "Hikmat" asarida so'fiylik asoslarini to'la ravishda bayon qilib beradi. U shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqatning o'n rivoyati haqida yozadi, so'fiylikning prinsiplarini bayon qiladi, so'fiylarning o'n xil afzalliklari haqida, qashshoqlik va kambag'allikning yo'llari hamda sifatleri to'g'risida gapiradi,

kambag'allikni shamchirog', quyosh deb ataydi. Ahmad Yassaviyning nuqtai nazaricha, "... dunyoning noz – ne'matlarini iltijo qilgan so'fiy so'fiy emas, baxtsizlik va g'urbatni toat – ibodat hamda yig'i bilan o'tkazgan kishi so'fiydir"[4].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ahmad Yassaviyning tasavvuf falsafasida insonning o'zligini bilib olishini barcha masalalardan ustun qo'yadi. Chunki Yassaviy nazarida insonning o'zini bilishi bu haqni bilishidir. Haqni bilish esa, undan qo'rqish va insofqa kelishdir. Haqni bilish Yassaviy uchun kamtarlikdan, sabr – qanoatlilikdan, hokisorlikka qul bo'lishdan, ba'zan tuproq bo'lishdan boshlanadi. Xuddi shu sifatlar bilan inson o'z qalbini Iloh nuri bilan to'ldirishi, xorlikni pesh qilmasdan o'z nafsini o'ldirish sabab bo'la oladi. Bu esa mutafakkirning diniy e'tiqodlar orqali insonni ezgulik va ezgu xulq egasi bo'lishga, muruvvatli va toza qalbli bo'lishga chaqirayotganligi sezilib turadi[5].

Yassaviy ijtimoiy qarashlarini o'rganar ekanmiz, uning ijtimoiy – falsafiy ruhiyatida dunyodan butunlay yuz o'girish g'oyasi yo'q. Balki unda insonga zid bo'lgan sifatlarni, ya'ni nodonlik, badnafslilik, molu dunyoga hirs qo'yish illatlarini shakllantiradigan ijtimoiy omillarni tanqid qiladi.

Ahmad Yassaviy ta'limotida fano tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Fano Yassaviy nazarida Xudoga yetishishning eng yuqori bosqichi va bu bosqichda inson o'zining kimligini unutadi va Alloh visoliga yetishni bosh maqsad qilib qo'yadi. Xuddi shu narsa Yassaviy qarashlarining muhim tomonini tashkil qiladi. Yassaviy ta'limotidagi fano tushunchasining ijtimoiy mohiyati shundaki, u insonni nodonlik va g'afatdan, jaholat va zulmdan ozod etadi, manmanlikdan poklanishga chaqiradi va iymonsiz bo'lishidan xalos etadi, gumrohlik kibru havoga qul bo'lishga chek qo'yadi, tubanlikni o'ldiradi.

Ijtimoiy va ahloqiy bir qahramon sifatida maydonga chiqqan Ahmad Yassaviy nazarida ijtimoiy jarayonning har bir hodisasiga to'g'ri yondashish uchun inson avvalo, nopoklikdan xalos bo'lishi va u asliy hamda ruhiy poklangan bo'lishi kerak. Bu mezonlar Yassaviy ijtimoiy qarashlarining negizini tashkil qiladi. Bu poklanish oshiqlik, ishq hol, oriflik tushunchalari bilan amalga oshadi[6].

Avvalo, Yassaviy hikmatlaridek ulkan ma'naviy boylikni bizgacha yetkazib kelgan darveshlardan minnatdor bo'lish kerak. So'ngra, Yassaviy o'z hikmatlarini bu darveshlarning ona tillarida yaratganligi uchun ham, ularni yodlash va avloddan avlodga yetkazib berish imkoniyati ko'proq bo'lganini hisobga olish lozim.

Ahmad Yassaviy mol – dunyoga hirs qo'ygan, mudom amal talashib xalqni qirg'in - urushlar girdobiga tashlagan podsho va beklarga nafrat bildirib yozadi:

Dunyo mening deganlar,
Jahon molin olganlar,
Mullo, mufti bo'lganlar,
Oqni qora qilganlar,
Harom yegan hokimlar,
Totliq – totliq yeganlar,
Turluk – turlik kiyganlar,
Oltin taxtga chiqqanlar,
Yer ostig'a kirmishlar.

Kekkeygan barcha hukmdorlar axiyri qabrga kirib tuproq bo'lishlarini aytish bilan shoir odamlarni nafsga, o'tkinchi manfaatlarga bunchalik berilmaslikka, insofli va adolatli bo'lishga, Allohni va oxiratni unutmaslikka chorlaydi.

Buyuk vatanparvar Ahmad Yassaviy XII asrdayoq ona tilining himoyachisi va targ'ibotchisi bo'lib maydonga chiqqan.

Ahmad Yassaviy hikmatlari va uning adabiy maktabi Turon va Xurosondan tashqari, sharqda Mo'g'ulistonu, shimoli – g'arbda Volga bo'ylaridagi Oltin O'rdagacha, Qora dengiz va O'rta Yer dengizi bo'ylaridagi Turkiyagacha ulkan hududlarda ijod qilgan turkiyzabon shoirlarni bir adabiy til atrofiga jipslashtiradi[5].

Ahmad Yassaviy ijodiyotini xalqdan ajratishga qanchalik urinilmasin, ulug' mutafakkirning muborak nomi va she'rlari elimizning ko'nglida va xotirasida yashab keldi. Shuning uchun qayta qurish davri boshlanishidanoq amalga oshirilgan ishlardan biri "Devoni hikmat"ni nashrga tayyorlab, keng o'quvchilar ommasiga yetkazish bo'lgandi.

Yassaviyning hayoti, tasavvufiy va adabiy merosini o'rganish o'ziga xos jarayondirki, uning ildizlari olis davrlarga borib tutashadi. XX asrga kelib, yassaviyshunoslikda keskin o'zgarish, ziddiyatli bir evrilish hosil bo'ldi. Chunonchi, Yassaviyini olqishlash bilan birga tahqirlash ham boshlanib, bu hodisa sho'ro davlati barham topguniga qadar davom etdi. Mana o'shanday bir sharoitda qardosh Turkiya diyori buyuk bobomiz Ahmad Yassaviyning qutlug' nomi, sharafi va merosini muhofaza etishning daxlsiz qo'rg'oni bo'lgan. Bu ham tasodifiy hol emas. Zero, turk tadqiqotchilari takror – takror e'tirof etganlaridek, Onado'lida islomning mustahkam qaror topishi, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotning o'nglanishida Xoja Ahmad Yassaviy mafkurasi hamda yassaviya darveshlari faollik ko'rsatishgan. Muhammad Sarhon Tarshiy, Mekoil Bayram, Ahmad Yashar O'choq, Mustafo Qara, Usmon Turar, Xasan Komil Yilmaz kabi olimlarning maqolalaridagi faktlar bunga dalildir. Jumladan, Mustafo Qara Ahmad Yassaviy ta'limoti usmonli davlatining ma'naviy poydevori bo'lganligini qayd etsa, Hasan Komil Yilmaz Avliyo Chalabiyning "Sayohatnoma" sig'a asoslanib, yassaviya izdoshlarining kasb – hunarga qo'shgan hissalaridan bahs yuritgan[6].

Sobiq sho'ro davlati qaramligida yashagan qardosh mamlakatlar mustaqillikni qo'lga kiritgach, Ahmad Yassaviy shaxsiyati va ijodiga qiziqish o'z – o'zidan kuchaydi. Natijada, O'zbekistonda 1993-yil "Ahmad Yassaviy yili" deb e'lon qilindi[7].

Ahmad Yassaviyning qudratli shaxsiyati va faoliyatini tahqirlash, qoralashga urinish yolg'iz sovet zamonining tashabbusi emas. Buning tarixi ancha uzoq. So'fi Olloyor "Sabot ul ojizin" manzumasida "Oti mo'min vale nafsiga shaydo" "bir firqa" paydo bo'lganligi, ular Yassaviyning zikr majlislarida erkaklar bilan ayollar ham ishtirok qilishlarini dastak etib, nomaqbul ishlarga tashabbus ko'rsatganlarini aytib, yana yozadi:

Xudoning do'sti bo'lsa Xoja Ahmad,
Qilurmi hech muningdek bid'ati bad.
Shariatda edi ul oftobe,
Qolubdur bizga ul erdin kitobe...

U yoki bu ma'noda Yassaviyga, xususan, yassaviylik tariqatida ayollarning o'rniga e'tiroz qiluvchilar hatto hozir ham mavjud. Kamol Eraslon o'sha tarixiy anglashilmovchiliklar qayta bosh ko'tarmasligini ko'zlab, Yusuf Bayzoviy tilidan hikoya qilingan hikmatlarni yigirma beshinchi raqam ostida majmuaga kiritgan[8].

Buyuk mutafakkirning dunyoqarashi uning "Hikmatlar" asarida bayon qilingan. "Hikmatlar" turkiy adabiyotning nodir yodgorliklaridan bo'lib, Yassaviy unda islom dini, islom falsafasi, tasavvufi bilan emas, balki o'sha davr ijtimoiy tartiblari, chorvadorlar, hunarmandlarning hayoti va ruhiyatini chuqur bilib, uni "Hikmatlar"ida tahlil etib berganligining guvohi bo'lamiz.

Tasavvuf maslagining namoyandalarining Ibrohim Adham, Boyazid Bistomiy va Mansur Halloj so'fiy sifatida o'zlarini Haq oldida, Alloh vasliga yetishgan deb hisoblaganliklari uchun hukmron sinf fatvosi bilan oliy jazoga mustahiq etilgan edilar. Yassaviy ham o'zini Alloh bilan birga biladi va "Anal-Haq" – "Men - Haqman" deb hisoblaydi, o'zini "Men -Haqman" degani uchun dorga osilgan va e'tiqodidan qaytmagan Mansur Halloj darajasiga yetishgan deb biladi[9].

Ayo do'stlar, pok ishqini qo'lga oldim,
Bu dunyoni dushman tutib yurdim mano.
Yaqom tutib dargohiga sig'inib keldim,
Ishq bobida Mansur bo'ldim mano...
Ey mo'minlar man ham Mansur bo'ldim mano...

Yassaviy dunyoqarashi bo'yicha, bu dunyo rohatini qidiradigan so'fiy - so'fiy emas, toat – ibodat qilib, halollik va poklikni targ'ib etib, dunyoning g'am – g'ussasini chekib, xalq tashvishi bilan o'tkazgan zotgina haqiqiy so'fiydir.

Shubhasiz, Yassaviy ta'limoti xalq orasida dinning ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan bo'lsa – da, uning tariqatiga mansub bo'lgan mutasavviflar xalq ommasini o'z tomoniga og'dirib olish maqsadida zolim va poraxo'rlarni, amaldor va shayxlarni tanqid qilar edi. Markaziy Osiyodagi darveshlar harakatining rivojlanishi Ahmad Yassaviy nomi bilan bog'liqdir. Tarixiy kitoblarda buzib talqin etilgan yassaviychilik aslida Chingizxon va uning bosqiniga qarshi safarbar qilishda ijobiy rol o'ynagan[10].

Yassaviy hikmatlarining axloqiy, falsafiy, ilohiy ildizlari to'g'ridan – to'g'ri “Qur'on” g'oyalari va Muhammad payg'ambar hadislariga borib bog'lanadi. Ahmad Yassaviy uchun “O'n sakkiz ming elni “g'arib birla yetimg'a” muruvatga chorlashi, “yo'ldan ozg'on gumroh”larga to'g'ri yo'l ko'rsatishi, “rost yurigan qulini” g'oyatda e'zozlashicha, “yolg'onchilar qavmini ummat”ga qo'shmasligi va Allohdan o'zgaga tobe bo'lmaslikka da'vat etishi bilan olamshumul qimmatga ega edi. Agar biz masalaning bu jihatini tushunmasak- Yassaviy ijodiyotini ham xolis tushuna olmaymiz. Qadimiy turkiy adabiy yodgorliklaridan birida o'qiyimiz: “Bilingkim, payg'ambar alayhissalom uch karra aydikim, “Din nasihatdur”. Ayturlar, “YO rasululloh, nasihat ne narsadur?” Aytdi: “Musulmonlarg'a dinu imon yo'lini o'rgatmoqlikdur, Tengrini bilmakdur...”[11].

Ahmad Yassaviy hikmatlarida ham hokim ruh – nasihat ruhi. Lekin shoirning deyarli barcha pandu – nasihat so'zlari bitta maqsadga qaratilgan. Bu – mutlaq haqiqatni bilish, haqni sevish – chunki “Haqni suygan oshiqlar” yo'ldan ozib, nafsu dunyo uchun imonsotarlik qilmaydilar.

To'g'ri yurgan oshiqlardan Xudo rozi,

Oshiq ishi oson emas qilma bozi,

Yolg'onchilar oshiq men der, Alloh qozi,

Imonini puchak pulga sotar emish,- deydi shoir[12].

Akademik A. Ye.Krimskiy turkiy xalqlarning so'fiylik g'oyalari e'tibori to'g'risida fikr yuritib, Ahmad Yassaviy ijodiyotini shu qiziqishning ehtiyojij mahsuli sifatida baholagan. Yassaviy turkiy adabiyotdagi dastlabki so'fiy ijodkorlaridan. Uning mushohada va haqiqat yo'llari so'fiylik tamoyiliga ega. Lekin bu yo'nalishni o'zi kashf qilgani yo'q. Arab va forslardagi tasavvuf adabiyoti tajribalariga tayangan. Turkiy xalqlar og'zaki ijodiyotida yaratilgan diniy qo'shiqlardan ilhomlangan. Yassaviy hikmatlarining vazni xalq she'riyatidan o'zlashtirib, poyetik obrazlarining ko'pchiligi og'zaki adabiyotdan olingan. Biroq Yassaviy ijodiyotini mistitsizm tarixi, tasavvuf falsafasi, eng asosiysi, sharq tasavvuf she'riyatining poyetik obrazlar sistemasi bilan qiziqmasdan to'g'ri anglash ham, xolis baholash ham mumkinmas. Shu yo'nalishda o'zbek ilmida qanday natijalarga erishildi? Asosan Yassaviy “o'ta reaksion shoir” deb qoralanib keldi. To'g'ri, Yassaviy hikmatlaridagi g'oyalarning “reaksion” emasligini tasdiqlashga bag'ishlangan ayrim maqolalar ham chiqdi. Bumarhum olim Ergash Rustamovning “Ahmad Yassaviy” (“Toshkent oqshomi” gaz. 1973-yil, 15-yanvar soni) nomli maqolasi edi[13].

Professor N. Mallayev yozadi: “Ahmad Yassaviy mazlumlarga qarata: “Zolim agar jafo qilsa Ollo degil”... – der ekan u bu bilan mazlumlarni zolimlarga qarshi bosh ko'tarmasdan Xudoga... sig'inishga, har qanday kurashdan voz kechishga chaqiradi”. To'g'ri, Yassaviy Xudoga sig'inishga chaqirgan. Tabiiy savol tug'iladi: o'tmishda yashab ijod etgan sharqning qaysi ulug' shoiri Xudoga sig'inmaslikka chaqirgan? Hofiz yo Sa'diymi? Navoiy yoki Boburmi? Yassaviy she'rida zolimga qarshi bosh ko'tarma deyilmagan. Balki zolimni yengishga da'vat qilingan. “Haqdin eshitib bu so'zlarni aydim mano”, - deydi u. Bu yuzaki e'tirofmas. “Haqdin eshitib” degani “Qur'on”ga ishora. Demak, hikmatdagi g'oyani u “Qur'on”dan o'zlashtirgan. Afsuslanarlisi shundaki, “bo'yin sung'il” iborasi yaratganga emas, zolimga “bo'yin eg” ma'nosida anglagan va izohlangan. Holbuki, birinchi ikki satrdagi mantiq bunday: “Zolim agar jafo qilsa, Ollo degil. Munojotlar aylab undan madad va quvvat tila. Yolg'iz haqqa bo'yningni ham qill!”. Baytdagi fikr ana shunday tushunilishi va sharhlanishi kerak[14].

Ilohiy ishq dardida jo'shib, o'zini yoqavayron etgan Yassaviy, Mansur Halloj kabi muztarib holda jonini fido qilishga ham tayyor bir erdir. Ilohiy ishq o'tida yongan kishi har qanday qiyinchiligu dardlarga chiday oladigan holga keladi. Oshiq hayotida tikanlar yo'q, balki gul –lolalar, go'zalliklar, xayr – ezguliklar va kamollar bor. Oshiq ehson miqyosida o'lmasdan burun jannatdagi qalbiy huzur va taskin – qoniqishga erishadi. YA'ni, u “o'lmasdan burun o'ladi” va ruhiy dunyodagi jannatning ma'naviy mevalaridan oziqlanadi.

Ma'lumki, tasavvufda Mansur Halloj ilohiy ishq timsoli sifatida tasvirlanadi. Qudsiy ishq yo'lida jon bergan “ishq dori” Mansur” o'laroq bora so'fiylar uchun jonlaridan kechishning ramziy ko'rinishidir[15].

Qirq besh yoshida:

Qirq beshimda sendin hojat tilab keldim,

Tavba qildim har ish qildim xato qildim,

Yo ilohim raxmatingni ulug' bildim,

Zoti ulug' xojam sig'nib keldim senga.

Shayximiz Parvardigoridan hojat so'rar ekan, haqiqiy so'fiy o'laroq Allohdan boshqasiga ehtiyoj sezmaydi. Fikrimizcha, uning tilagi Haqning xushnudligini qozonmoq edi. U komil inson bo'lishiga qaramay, o'zini hali ham nafsi tarbiyalanmagan, xato qiluvchi va qusurli deb bilib, tavba qilmoqda[16].

Yassaviyning murshidlari Arslonbob va Yusuf Hamadoniylarning ma'naviy fayzlaridan bahramand bo'lib, ulardan zohiriy va botiniy ilmlar o'rganishi natijasida, o'zi voyaga yetgan, O'g'uz davlatining poytaxti bo'lgan Yassida mustaqil tariqat qurib, sodda va ravon tilda tasavvufiy rang bilan jilolangan islom e'tiqodi, axloqi va madaniyatini targ'ib qilib, turkiy jamiyat nazdida uni bir joziba markazi holiga keltiradi, oqibatda turkiylar orasida islomiyat tezda tarqalib, keng ildiz otadi. Diniy – tasavvufiy haqiqatlarni avom xalq tushunadigan sodda tilda, hikmatlar tarzida ifodalagan Yassaviyning dargohida turli diyorlardan kelgan ko'plab talabalar ta'lim – tarbiya olgan. Kamolga yetgandan keyin bu muridlar turkiy olamning to'rt tarafiga tarqalib, din va tasavvuf asoslarini yoydilar. Yassaviy boshlab bergan bu musulmonlashtirish faoliyati O'rta Osiyo, Kavkaz, Onado'li va Bolqon yarim oroliga qadar keng hududni qamrab oladi. Bugunga qadar mazkur o'lkalarda islomning saqlanib qolishiga eng katta hissa qo'shgan so'fiylar, ayniqsa, yassaviylik maktabi vakillaridir. Bu esa yassaviylikning turk – islom tarixidagi o'rni va ahamiyatining nechog'li nufuzga ega ekanligini ko'rsatadi[17].

Yassaviy "Hikmatlar"i bir – biridin pur'ma'no va teran mazmunga ega. Unda ilohiy ishq-yaratganga bo'lgan muhabbat ustuvor. Jamiyatning notengligidan ko'ngli ozor chekkan shoir "Ishqsizlarning ham joni yo'q, ham imoni" deb, o'sha vaqtdagi davlat, raiyat tepasida turganlar, xalqni o'ylovchi kishilar emas, balki odamlarga hurmatsiz va e'tiqodsiz, hissiz va shafqatsiz kimsalar deb biladi. Agarda ular Xudoni o'ylasalar, Yaratganga e'tiqodi bo'lsa, yurt ustida na urush va na mojaro bo'ladi, xalq osoyishta va farovon yashaydi, deb fikr yuritadi Yassaviy.

"Haq yo'liga kirib bo'lmas pok bo'lmasang" deb hisoblagan shoir odamlarni Haqdan qo'rqish va unga sig'inishga chaqiradi, podsho ham, gado ham Allohning amriga quloq solishini va undan saboq olishini maslahat beradi, dardli va xoksor kishini Alloh suyadi, deb o'git berarkan, bunday kishilar parvardigorining suygan qullaridir, orif kishilar haqiqatgo'y va ilimli bo'ladilar, deb biladi. Uning nazdida orif kishi dunyoda har bir narsani to'g'ri idrok etadi, mavhumlikdan qochadi, tangri borligiga imon keltirib umr o'tkazadi va Haq nomidan so'zlaydi, unki uning quroli – Allohning Qur'oni.

Haq deyajak nafasi Haqdin kelur,
So'ylayajak so'zlari Qur'on bo'lur.

Ahmad Yassaviy she'riyati falsafaga boy. Uning she'riy asarlari ohangi arab va fors she'riyati yo'nalishiga hamohang. She'riyatidagi qofiyalar yo'li esa turkiy xalqlar diniy qo'shiqlaridan ilhom olib yozilganligi ma'lum. Uning she'riyati yuqori darajadagi donishmandlik ruhi bilan yo'g'rilgandir.

XULOSA

Ushbu ilmiy maqola haqida xulosa qilinganda, mutafakkirning tasavvufiy – irfoniy qarashlari uning "Hikmatlar" va "Faqrnoma" asarlarida bayon etilgan bo'lib, u asos olgan ta'limotda irfonga yetishish, ma'rifatli bo'lish, haqiqatni anglash va Allohga oshiqlik yo'li ekanligi tahlil etilgan.

Irfon – anglash, tushunish, bilishdir. Haqni bilgan kishi, uning (Alloh) diydoriga vosil bo'lishdir;

Xoja Ahmad Yassaviyning turk – islom tarixidagi g'oyaviy qarashlarining eng asosiy xususiyatlari buyuk so'fiy, zabardast pir va yassaviyadek tariqatning asoschisi bo'lganligidadir. Shuning uchun "Piri Turkiston", "Hazrati Turkiston" kabi nisbalar, ulug' shayxulmashoyixning, oriflar sultonining shuhrat topishi, turkiylarni bu dinga kirishlariga, islom dunyosi xalqlarini shariat, tariqat, ma'rifatga chorlashi, umuminsoniy oliy ma'naviyat ruhida tarbiyalab kelishlari bilan ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Orif Usmon. "Vahdat sharbatin ichtim". Muallif – tuzuvchi Z. Jo'rayev. To'plam. G'oyiblar xaylidan yongan chiroqlar. T.: "O'zbekiston"
2. Rustamov Ergash. Yassaviy hikmatlarida tarix va hayot sadosi. To'plam. Xoja Ahmad Yassaviy hayoti, ijodi va an'analari. To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar: Ibrohim Haqqul va boshq. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. –T., 2001.
3. Mo'minov. I.M. Tanlangan asarlar. –T.: "Fan". 1969.

ILMIY AXBOROT

4. Sbornik Turkestanskaya vostochnogo instituta, Tashkent, 1923.
5. Karimov S. Sharq ijtimoiy tafakkuri tarixidan. –T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2016.
6. Qodirov Pirmqul. Til va el. –T.: “Ma’naviyat”, 2010.
7. Ibrohim Haqqul. Ijod iqlimi. –T.: “Fan”, 2009.
8. Hoshimxonov M va boshq. Nur Sharqdandir. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2003.
9. Ibrohim Xaqqul. Tasavvuf va she’riyat. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Nashriyot matbaa birlashmasi. 1991.
10. Mallayev N. M. O‘zbek adabiyoti tarixi. T.: “O‘qituvchi”, 1965.
11. Golpunarli, Abdalbaki, Tasavvuftan dilimize gecen deyimler ve ata so‘zleri.
12. Adham Jabajio‘g‘li. Ahmad Yassaviy va tasavvufiy qarashlari. To‘plam. Xoja Ahmad Yassaviy hayoti, ijodi va an‘analari. To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar: Ibrohim Haqqul va boshq. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. –T., 2001.
13. Usmon Turar. Yassaviyning turk – islom tarixidagi o‘rni va mutasavvifligi. To‘plam. Xoja Ahmad Yassaviy hayoti, ijodi va an‘analari. To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar: Ibrohim Haqqul va boshq. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. –T., 2001.